



GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA MILLIY BIRLIK TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Mamatqulova O.X.

*T.N.Qori -Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy
tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

Tayanch so‘zlar: ta’lim, raqamli texnologiya, transformatsiya, yoshlar, o‘smir yoshdagi o‘quvchilar, milliylik, milliy birlik, milliy o‘z-o‘zini anglash, ma’naviyat, ma’naviy tahdidlar, mafkura, “elektron hukumat”, “elektron savdo”, “raqamli iqtisodiyot”, Internet, kompyuter, kompyuter savodxonligi.

Ключевые слова: образование, цифровые технологии, трансформация, молодежь, студенты-подростки, национальность, национальное единство, национальное самосознание, духовность, духовные угрозы, идеология, “электронное правительство”, “электронная коммерция”, “цифровая экономика”, Интернет, компьютер, компьютерная грамотность.

Key words: education, digital technology, transformation, youth, adolescent students, nationality, national unity, national self-awareness, spirituality, spiritual threats, ideology, “electronic government”, “e-commerce”, “digital economy”, Internet, computer, computer literacy.

Bugun insoniyat XXI asrda yashamoqda. Hozirgi davr dunyoda g‘oyaviy-mafkuraviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir. Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan, juda ko‘plab falokatlarga sabab bo‘lgan muammolarga duch keldi. Urush, ekologik falokatlar, ma’naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga dunyoda globallashuv natijasida axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar ham bormoqda. Bu shunday jarayonki, undan hech qaysi davlat chetda qolib ketmaydi. Buyuk hind arbobi Mahatma Gandi bu jarayonning mazmun-mohiyati xususida to‘xtalib, shunday degan edi: “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va



derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, xonadonimni ag‘dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman” .

Butun Yer yuzi odamzod uchun yagona makon ekanligi aniq. Bunga shakshubha yo‘q, albatta. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o‘zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo‘lgani ma‘lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borganini bilamiz. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko‘proq bir davlat ichida, ikki davlat o‘rtasida yoki nari borganda bir mintaqa doirasida bo‘lishi mumkin edi. To‘g‘ri, aytaylik, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxonning ulkan davlat barpo etish uchun yoki o‘rta asrlardan boshlab yevropalik istilochilarning boshqa qit‘alarni zabt etish uchun olib borgan urushlari ko‘lami jihatidan ajralib turadi. Ammo bunday holatlar istisno hodisalar sifatida baholanmog‘i kerakka o‘xshaydi.

XX asrda ro‘y bergan ikkita jahon urushida o‘nlab davlatlar, bir necha qit‘a mamlakatlari ishtirok etganligini eslasak, bunday xulosa muayyan darajada o‘rinli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Urush qurollari takomillashib boraverdi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo‘q qilib tashlashga yetadi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunistizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

Kishilik jamiyati tarixi insonda olijanob fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ham, ayni paytda g‘ayri insoniylikning xilma-xil ko‘rinishlari ildiz otib, o‘zining mudhish qiyofasini namoyon qilishiga ham ko‘p bor guvoh bo‘lgan. Afsuski, insoniyatning butun tarixi davomida bunday illatlar unga hamrohlik qilib keldi, turli davrlarda yangi shakl-shamoyil, xususiyat kasb etdi. Bugungi kunda ularning eng yovuzlari Yer yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda, insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy qilishiga katta xavf tug‘dirmoqda. Mana shunday vaziyatda yuqorida sanab o‘tilgan tahdidlarga sabot va matonat bilan qarshi tura olish uchun insonlar qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada, ayniqsa, milliy birlik va hamjihatlikni ta‘minlashning o‘rni beqiyosdir.

Zero, milliy birlikni anglash, nafaqat o‘z zaminlari asosida rivojlanish, o‘z millatining manfaatlarini himoya qilish ruhiyatining mustahkamligi, shuning bilan birga millatning jahonning taraqqiy qilgan mamlakatlari darajasida rivojlanish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga intilishga harakat qiluvchi vakillarining salmog‘ining oshib borishida ham o‘z ifodasini topadi.

Davlatimiz rahbari “Biz jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettiramiz. Mamlakatimizda “jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g’oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do’stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ’ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo’lib qoladi”, deb ta’kidlab o’tgandi. Bir so’z bilan aytganda, muayyan mamlakatning yuksalishi, unda tinchlik va osoyishtalikning hukmron bo’lishi, bu yerda yashaydigan insonlarning qanchalik ahil va inoqligiga bog’liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni qayd etishim joizki, insonlar va ayniqsa, Vatanimiz kelajagi bo’lmish yoshlarning qalbi va ongida milliy birlik tuyg’usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega va bunda ta’limning o’rni beqiyos sanaladi. Zotan, aynan ta’lim ularda milliy birlik haqidagi muhim tushunchalarning shakllanishiga xizmat qiluvchi omillardan sanaladi va bunda ayniqsa, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish ko’zlangan maqsadga yetishimizda samarali ahamiyat kasb etadi.

Chunki, biz xohlaymizmi yoki yo’qmi, bugungi kundagi taraqqiyot ko’p jihatdan raqamli texnologiyalarining rivojlanish ko’rsatkichlariga bog’liq bo’lib qoldi. Shuning uchun ham yoshlarning raqamli texnologiyalar bo’yicha zarur bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi bugungi zamon talabi sanaladi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo’sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish bo’yicha “Besh tashabbus”ning uchinchi tashabbusi “aholi va yoshlar o’rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish” ga qaratilganligi bejiz emas edi.

So’nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ta’limni samarali tashkil etishda ularning imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanila boshlandi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda ta’limni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Zero, bugungi kunda ta’lim muassasalarida foydalaniladigan multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlarning o’rni beqiyosdir.

Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshishiga xizmat qiluvchi vositalardan sanaladi. Xususan, bu kabi texnologiyalar ta’limda o’quvchilar bilim olishining faollashishiga, turli raqamli texnologiyalardan foydalana olish imkoniyatining shakllanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to’liq qamrab olish va fanga nisbatan ijobiy munosabatni uyg’otishga sabab bo’ladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan ta’lim tizimida foydalanilishi o’quvchilarga dars mashg’ulotlarini sifatli o’tilishini ta’minlaydi. Birgina, pandemiya sharoitining o’zi ham ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning qo’llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi.



Raqamli ta'limga o'tishning boshqa ijobiy tomonlari xususida fikr yuritadigan bo'lsak, darsliklar elektron shaklda ekranlarga ko'chadi, o'quvchilar o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi, internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi, ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini kamaytiradi va boshqalar.

Ayni shuning uchun ham hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalari qatori, ta'lim tizimining ham jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega. Buning tasdig'i o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, № PF-60-son Farmonining 41-maqсадining beshinchi qismida "kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish" belgilanganligi juda katta ahamiyatga egadir.

Shuningdek, bu boradagi ishlarni takomillashtirish maqsadida 2020 yil 5 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079 – sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur huquqiy qonunosti hujjati O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor maqsadlari, muhim yo'nalishlari hamda istiqbolli vazifalarini belgilaydi. Bundan tashqari BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonini yanada takomillashtirish uchun axborot texnologiyalaridan ta'lim berish jarayonini yanada optimallashtirish, buning uchun esa o'sib kelayotgan yosh avlod orasida axborot texnologiyalarini yanada ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, turli yoshdagi aholiga Internet tarmog'ida ishlash, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga qamrab olgan kompyuter savodxonligi o'quv kurslarini tashkil etish, axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar sohasida yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan kadrlarni shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib berish va boshqalardan iborat.



Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va bu boradagi ishlarning yanada kengaytirilishi ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun juda katta afzalliklarga ega. Aytaylik, umumta'lim maktablarining birinchi sinfiga, oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarning onlayn shaklda topshirilishi bu ularning ham vaqtini, ham "naqd"ini tejaliyishiga xizmat qilmoqda. Yokida ta'lim jarayonida dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishi ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishilishiga olib keladi. Misol uchun, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli vatanparvarlik ruhidagi videoroliklarning namoyish etilishi yoshlarning qalbida milliy birlik tuyg'usining shakllanishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Shu sababli, ta'lim sohasida ham raqamli ko'nikmalarni oshirish muhim ahamiyatga ega va ushbu jarayonni takomillashtirish uchun ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali ularda raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish lozim.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident SHavkat Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 – sonli Farmoni. 2020 yil 5 oktabr. lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida so'zlagan nutqi// Xalq so'zi, 2020-yil 25 yanvar.
3. "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, № PF-60-son , 28 yanvar 2022 yil. Lex.uz.
4. "Dunyo globallasuv jarayoni va O'zbekiston yoshlari" mavzusidagi onlayn xalqaro yoshlar ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyasi maqolalar to'plami. Rajabov Orifjon Xonimqulovichning "Globallasuv jarayonida iqtidorli yoshlarning Ijtimoiylashuvi muammolari: axborotlar ta'siri va himoyalani sh mexanizmlari" nomli maqolasi. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. - 13 b.
5. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Nihol, 2016

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada globallasuv sharoitida o'smir yoshdagi o'quvchilarda milliy birlik tuyg'usini rivojlantirish imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan tegishli tavsiya va xulosalar keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещаются возможности развития чувства национального единства у школьников-подростков в условиях глобализации. Также по данной теме даны соответствующие рекомендации и выводы.

SUMMARY

This article highlights the possibilities of developing a sense of national unity among adolescent students in the context of globalization. Also, relevant recommendations and conclusions are given on this topic.